

Ikromov Maxamadyusub Tursunali o‘g‘li

Andijon davlat pedagogika instituti stajyor-o‘qituvchisi

Email: mukhammadyusuff@mail.ru +998973329333

**BOTANIK TERMINLARNI ANTROPOSENTRIK PARADIGMADA
O‘RGANISHNING AHAMIYATI**

Annotatsiya: Terminologik tizimda botanik terminlarning ahamiyati atrof borliqdagi predmetlarning botanik xususiyatlarini ifodalash bilan birga ma’lum xalq tarixi rivojlanishi, tarixiy taraqqiyotiga, ijtimoiy-madaniy hayotiga xos bo‘lgan axborotlarni tashiydi. Botanik terminlar biomorf kod sifatida mauayyan etnosga xos xususiyatlarni ifodalaytdi. Botanik terminlarning etnomdaniy xususiyatlarini o‘zbek tilida etnomadaniy kontekstda botanik terminlarning paydo bo‘lish jarayoni, Xalq og‘zaki ijodini, diniy-marosimlar va urf-odatlarini tadqiq etish orqali hamda o‘simliklarning xalq tabobatidagi o‘rnini tadqiq etish orqali aniqlashimiz mumkin.

Kalit so‘zlar: etnolingvistika, etnobotanika, etnomadaniyat, biomorf kod, xalq tabobati, madaniyat, stareotip, aksiologiya.

Икромов Махамадюсуб Турсунали ўғли

Стажер-преподаватель Андижанского государственного
педагогического института

Электронная почта: mukhammadyusuff@mail.ru. +998973329333

**МЕСТО БОТАНИЧЕСКИХ ТЕРМИНОВ
ТЕРМИНОЛОГИЧЕСКОЙ СИСТЕМЕ**

Аннотация: Значение ботанических терминов в терминологической системе заключается в выражении ботанических свойств окружающих предметов, а также в передаче информации, характерной для исторического развития, исторического развития, социальной и культурной жизни

определенного народа. Ботанические термины как биоморфный код выражали особенности, характерные для этноса маая. Определить этнокультурные особенности ботанических терминов в узбекском языке мы можем, изучая процесс возникновения ботанических терминов в этнокультурном контексте, фольклоре, религиозных обрядах и традициях, а также место растений в народной медицине.

Ключевые слова: этнолингвистика, этноботаника, этнокультура, биоморфный код, народная медицина, культура, стереотип, аксиология.

Ikromov Makhamadyusub Tursunali o'g'li

Andijan State Pedagogical Institute, teacher

Email: mukhammadyusuff@mail.ru +998973329333

THE PLACE OF BOTANICAL TERMS IN THE TERMINOLOGICAL SYSTEM

Annotation: The importance of botanical terms in the terminological system is that they express the botanical characteristics of objects in the environment, as well as convey information characteristic of the historical development, historical progress, and socio-cultural life of a certain people. Botanical terms, as a biomorphic code, express the characteristics characteristic of the Mauayyan ethnos. We can determine the ethnocultural characteristics of botanical terms in the Uzbek language by studying the process of the emergence of botanical terms in the ethnocultural context, folk oral literature, religious rituals and customs, and the place of plants in folk medicine.

Keywords: ethnolinguistics, ethnobotany, ethnoculture, biomorphic code, folk medicine, culture, stereotype, axiology.

Kirish

Terminologiya tilshunoslikning eng muhim bo'limlaridan biri hisoblanadi. Chunki jamiyatda ro'y berayotgan ijtimoiy-siyosiy, ilm-fan sohasidagi o'zgarishlar bevosita terminologik sistemaga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Botanik terminlar esa nafaqat o'simliklar dunyosi ifodalovchi leksik birliklar hisoblanadi, balki insonni o'rab turgan tushunchalar dunyosining tildagi aksi hamdir. Shuningdek, tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, botanik terminlar – fitonimlar lug'atning eng qadimgi qatlamlaridan bo'lib, ular turli birliklarni lingvistik konseptuallashtirishda faol ishtirok etadi [13, 508-515].

Botanik terminlar nafaqat atrof borliqdagi predmetlarning botanik xususiyatlarini o'z ichiga oladi, balki ma'lum bir etnoslarning o'tmishi, tafakkuri, madaniyati, dunyoqarashi, yashash tarzi va odatlari haqida ham muhim ma'lumotlarni beradi. Ayrim botanik terminlar xalqning aksiologik va stereotipik xususiyatlari haqidagi etnomadaniy ma'lumotlarni ham o'zida mujassam etadi. Muayyan jamiyatning turli o'simliklarga turlicha munosabatda bo'lishi, o'simliklarning ahamiyati va qiymatini turlicha qabul qilishini aniqlash haqidagi tadqiqotlar xalqning taraqqiyot jarayonida o'simliklarga nisbatan munosabati qanday shakllangani va o'zgarganligini aniq tushunishga imkon beradi.

Misol uchun: *shuvoq* o'simligi an'anaviy slavyan madaniyatida qayg'u, g'azab ramzi hisoblanadi. Garchi uning xalq tabobatida shifobaxshlik (mikroblardan tozalash) xususiyati bo'lishiga qaramay, xalq uni achchiq va yoqimsiz hidi sabab o'simlikka salbiy tus berganini ko'rishimiz mumkin.

Adabiyotlar tahlili

O'zbek tilida ham xalqimizning etnik kelib chiqishi, tarixiy rivojlanish jarayonlarida ro'y bergan ijtimoiy-madaniy jarayonlarni, bizni qurshab turgan tabiat haqidagi tasavvurlarini ifodalab beruvchi botanik terminlar va ular bilan bog'liq etnomadaniyat shakllangan. Botanik terminlar orqali tilimizning etnomadaniy xususiyatlarni aniqlash uchun tilimizda tarixan mavjud bo'lgan fitonimik leksikani tadqiq etish zarur. Buning uchun esa mumtoz adabiyotimizdagi

adabiy-badiiy manbalar muhim o‘rin egallaydi. Bunday manbalar ichida “Boburnoma” me’muari muhim ahamiyatga ega. Asarda Mavorounnahr, Xuroson va Hindiston tabiatiga xos fitonimlar haqida muhim ma’lumotlar beradi. Asarda, asosan, turkiy, fors-tojik va hindcha o‘simlik nomlari keltirilgan bo‘lib, ularning ayrimlari bugungi kunda ham mazmun va ifoda planini o‘zgarishsiz saqlab qolgan bo‘lsa, ayrimlarining ifoda plani, boshqalarining esa mazmun planida o‘zgarish ro‘y berganini kuzatishimiz mumkin. Har qanday holatda ham “Boburnoma”da berilgan botanikaga oid terminlar o‘zining termin sifatidagi funksiyasidan tashqari xalqimizning etnik xususiyatlarni ham madaniyatiga xos xususiyatlarini o‘zida saqlagan biomorf kod sifatida til tizimida madaniyatga xos birlik sanaladi. Asarda berilgan ifoda plani ham mazmun plani ham o‘zgarishsiz saqlangan botanik terminlarda bu yaqqol aks etadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu maqola orqali botanik terminlarning etnomadaniy xususiyatlari tarixiy-qiyosiy jihatdan yoritilib xalq og‘zaki ijodi namunalari: maqol, topishmoq, xalq qo‘shiqlari, badiiy asarlar hamda xalq tabobati namunalari orqali tadqiq etiladi.

Tahlillar va natijalar

Boshqa mumtoz adabiyot namunalarida bo‘lgani kabi “Boburnoma”da ham so‘zlar, shu jumladan, meva nomlarida ham o‘zbekcha, forsha, arabcha atamalar uchraydi. Masalan, “*Yaxshi qasaba voqe’ bo‘lubtur, purne’mat: anori va o‘rugi asru xo‘b bo‘lur. Bir jins anor bo‘lur, «donakalon» derlar, chuchuklugida zardolu mayxushlugidin andak choshnisi bor*” [10, 7] – “Boburnoma”dan berilgan ushbu parchada ishtirok etayotgan *anor*, *o‘rug*, *zardolu* fitonimlarni tahlil qilsak:

Anor – subtropik meva o‘simligi, buta hisoblanadi. Anor ba’zi manbalarda *nor*, arab manbalarida esa *Rummon* deb nomlanadi. Lekin bu so‘zlar O‘rxun-Enasoy yodgorliklari va Mahmud Qoshg‘ariyning “Devoni lug‘otit turk” asarida uchramaydi [3, 20]. Ushbu nomning kelib chiqishi Fors-tojik tiliga borib taqaladi. Bu esa qadimdan xalqimiz forsiyzabon xalqlar bilan yaqin madaniy aloqada

bo'lganining natijasidir. Chunki hozirgi kunda ushbu meva nomi tojik tilida *anar*, *nor*, fors tilida *anor*, turkman tilida *nor* shaklida ifodalanadi. Anor termini tilimizda mavjud bo'lgan qadimiy so'zlar sirasida kiradi. Bu esa uning semantikasi tarkibida meva yoki o'simlik semalaridan tashqari etnomadaniy xususiyatlarni ham ifodalash imkonini beradi. *Anor* so'zi ko'plab xalq og'zaki ijodi va yozma adabiyot namunalarida majoziy ma'no ifoda etadi:

Kichgina dekcha ichi to'la mixcha;

Sariqqina to'ni bor, ichi to'la doni bor;

Qirq hujrada – qirq qizlar. (Topishmoq)

Bir anor – ming bemorga davo [8, 39]. (Maqol)

Yuqorida keltirilgan topishmoq va maqollardan anglashilib turibdiki, anor o'zbek xalqining eng qadimiy ramziy obrazlaridan biri hisoblanadi. Anor mevasi donalarining ko'pligi sababli islomgacha bo'lgan davrda hosildorlik ramzi hisoblangan Anbar enaning atributi sanalgan bo'lsa, Islom e'tiqodiga bo'yicha "jannat meva" sifatida e'tirof etiladi: "U ikkisida (jannatda) meva, xurmo va anorlar bordir" (Rahmon surasi, 68-oyat). Shuningdek, Odam alayhissalom Jannatdan quvilganda unga 30 turdagi mevani olishga ruxsat beriladi. Shu mevalarni ichida anor mevasi ham bor edi. Shu sababli ham xalqimiz anorga jannat mevasi sifatida qaraydi.

Etnograf olim G.P.Snesarevning qayd etishicha, "mevali daraxtlar yoki ularning ayrim turlari, mevasining xususiyatlari rag'batlantiruvchi hisoblangan, keyinroq hosildorlik ramziga aylangan" [9, 192].



1-rasm



2-rasm

Xalq hunarmandchiligida sovg'a uchun tayyorlanadigan so'zanalarga (1-rasm) hamda sopol buyumlarga (2-rasm) ham anor tasviri tushirilishi uning xalqimizga xos muhim xususiyatlarni ramziylashtiruvchi naturfakt ekanini bildiradi. Xalq mifologiyasida uylanmagan yigit tushida anorni ko'rsa, anor yigit uylanadigan yorni, anor daraxtini tikanlari – sabrliroq bo'lishni, nordon anor – g'am-tashvish timsoli hisoblangan. Anor mevasining donalari esa farzand, yor, boylik ramzlari sifatida qaralgan. Demak, tush ta'birlarida anor daraxti, tikani, mevasi va uning donalari kabi qismlari ham alohida-alohida ramziylikni ifodalashi ham xalqimizning oila, yor, hosildorlik bilan bog'liq ramziylashtirish jarayonining natijasi sifatida qarashga imkon beradi.

Badiiy adabiyotda ham anorning turli belgilari asosida turlicha ramziylik aks etadi:

*Ul na gumbazdur eshigi tuynugidin yo'q nishon,
Necha gulgunpo'sh qizlar manzil aylabdur makon.
Sindirub gumbazni alar holidin olsam xabar,
Yuzlarida parda tortig'liq tururlar bag'ri qon. (Chiston)*

Uvaysiying ushbu chistonida ham anorning shakli – gumbaz, donalari – qizlar, rangini – qon, anor qisimlari o'rtasidagi pardani – qizlar yuzini berkitish uchun to'sib turuvchi pardaga qiyos etadi. Anor vestasida xalqimizga xos ayollarning begona erkakni ko'rganda ro'moli yordamida yuzini berkitish odatini ifodalamoqda.

*Har donacham bir askar,
Bir qal'ada ming lashkar.
Yotar ular panada,
Oq pardali xonada.
Xonalar tinch, atrof jim.
Qal'achani buzsa kim,
Boshlanadi to'polon...
U yog'i sizga ayon. (Adabiy topishmoq)*

Anvar Obidjonning ushbu adabiy topishmog'ida anor o'zgacha ramziylik kasb etgan, ya'ni u anorni – birlik, tinchlik, donachalarini – askarlarga qiyoslaydi. Bunda anorning xalqimizga xos yangi – tinchliksevarlik ramzi ekanini anglashimiz mumkin.

– *Anorning o'zidan to'rt xili bor. G'upromiddin «o'g'ri»likka kelgan kelinchaklarga yolg'ondakamiga «Ushla o'g'rini» deb qo'yardi.* (Said Ahmad. “Jimjitlik” romani)

– *Axir, boshqorong'i bo'l, evida bo'l-da!—dedi do'ppisini qoqmasdan boshiga kiyib. — Anor, anor... Bir qadoq anor falon pul bo'lsa!* (Abdulla Qahhor, “Anor” hikoyasi) – ushbu badiiy asarlardan berilgan parchalarda ham *anor* madaniyatga xos axborot tashimoqda. Bundan xalqimizga xos bo'lgan homilador ayolga alohida e'tibor ko'rsatilishi, ayolning har qanday xohishi hurmat qilinishini anglash mumkin. Ushbu holat xalq orasida tarqalgan “homilador ayol qulog'ingni so'rasa ham kesib ber” iborasida ham ifodalanadi. Shu o'rinda haqli savol tug'iladi: nega aynan anor? Chunki yuqorida keltirib o'tganimizdek, xalqimizda anor oila, farzand ramzi hisoblanadi. Bundan tashqari anor xalq tabobatida juda shifobaxsh o'simlik hisoblanadi: “Anor po'stlog'i – gijjaga, anor guli – stomatitga, milk kasalligiga, ichak yarasiga, anor mevasi – jigar kasalligiga, anor suvi – sariq kasalligiga, shirin anor suvi – ko'z qichishiga davo sifatida qo'llangan” [15, 141]. Demak, anor o'zbek etnosining tarixiy-taraqqiyot jarayonida, turmush tarzida muhim o'rin egallagan.

Yuqorida “Boburnoma”dan keltirilgan parchada “*o'rug, zardolu*” meva nomlari ham keltirilgan bo'lib, ushbu terminlar ham alohida tadqiq etishni talab etiladi. Eski turkiy tilda *o'ruk* so'zi hozirgi kundagi shaftoli, olxo'ri va o'rik ma'nolarini ifodalagan. Keyinchalik *o'ruk* so'zini oldiga sifatlovchi qo'shish orqali *tukluk o'ruk – shaftoli, qara o'ruk – o'lxo'ri, sariq o'ruk – o'rik* ma'nolarini ifodalagan. Zardolu so'zi esa tilimizga fors-tojik tilidan o'zlashgan bo'lib, yuqorida keltirilgan *sariq o'ruk* terminiga muqobil hisoblanadi. Ya'ni *zard* tojik tilida *sariq* degan ma'noni anglatadi. Demak, Bobur *o'ruk* va *zardolu* so'zlarini bir o'rinda qo'llaganini ikki xil izohlash mumkin:

1) Bobur o'ruk termini oqali, yuqorida ta'kidalaganimizdek, shaftoli, orik, olxo'ri mevalarini nomlarini umumlashtirgan. *Zardolu* termini orqali o'rik mevasini ifoda etgan.

2) Bobur o'ruk terminini umumiy nom sifatida (o'rik navlari uchun), *zardolu* terminini esa sariq rangli o'rik naviga nisabatan qo'llagan.

Bizning fikrimizcha, ikkinchi fikr haqiqatga yaqin hisoblanadi. "Bobur ensiklopediyasi"da ham "o'ruk va *zardolu* so'zlari o'rik daraxti va mevasi sifatida izohlanadi [12, 603]. XIV asrga oid "Tarjumon" asarida "*zardalu*", "*saru o'ruk*" [2, 10,34] shakllarida beriladi. "Attuxfatuz zakiyatu fillugatit turk" asarida "o'ruk" [11, 177] shaklida berilgan,

Fors tilida o'rik bo'lar zardoli,

Me'da uchun nafi go'yo shaftoli [15, 141]

"Tabobat durdonalari" asari garchi tabobatga oid asar bo'lsa ham unda ko'plab o'simliklar qatorida o'rik nomi ham berilgan bo'lib, *zardoli* so'zi o'rik nomining forscha variant ekani haqidagi lingvistik ma'lumot berilgan. Yuqoridagi fikrlardan ko'rinib turibdiki, o'rik nomi tarixan turli nomlar bilan, turli fonetik farqlanishlar bilan ifodalanib kelingan. Eng qizig'i, bugungi kunda ham turli shevalarda o'rik leksemasi turlicha ifodalanadi. Masalan, Janubiy Xorazm shevasida *arik*, Shimoliy Xorazmda *erik*, Xorazm viloyati Bog'ot tumanida *g'ulung*, Buxoro viloyatida *zardolu*, *zardoru*, *zaldori*, Xorazm viloyati Xazorasp tumanida *o'rik* [1, 32,75,109,206] shaklida ifodalanadi. O'rik leksemasini sinxron holatda jonli so'zlashuv tilida ifodalanishini kuzatadiganda, *dovcha* terminlari o'rik mevasining pishmagan holatini ifoda etsa, Navoiy viloyati Xatirchi tumanida esa *dovcha* leksemasi ham pishgan, ham pishmagan o'rik mevasini ifodalaydi. Yuqoridagi farqlanishlarni sababini esa, ekstralingvistik omillar bilan bog'lash mumkin. Xalqimizning qardosh va noqardosh qo'shni xalqlar bilan ijtimoiy-madaniy aloqalari bevosita tilda ham aks etadi. Natijada, bit rushunchani ifodalovchi turli nominativ birliklar hosil bo'ladi.

Qanday nomlanishidan qat'i nazar xalqimizda o'rik fitomorf kod yoki etnografimiz sifatida etnomadaniy xususiyatini namoyon qiladi. Uning bu jihati, avvalo, folklorda namoyon bo'ladi:

O'rikning boshqa mevalardan farqli ravishda barcha turlari o'ziga xos ta'mga, mazaga ega, ya'ni uning nordon yoki achchiq turlari deyarli yo'q. O'rik navlari ichida esa *qandak o'rik* o'ziga xos shirali turi hisoblanadi.

Bolaginamning bolasi – qandak o'rikning donasi [20, 49](maqol)

Ushbu maqolda metaforik ma'noda *o'rik-farzandga, o'rik donasi esa – nabiraga* qiyos etilmoqda. Bu orqali xalqimizga xos bolajonlik xususiyatlari ifodalanmoqda.

O'rik yeb og'rigandan, olma yeb o'lgan yaxshi. [22] (maqol)

Zardoli ye-da, suv ich,

Zirillamasang, menga kel [6, 143] (maqol)

Ushbu maqollar foyda va zarar turkumiga mansub bo'lib, birinchi maqolda me'yoridan ortiq iste'mol qilingan o'rik mevasi inson salomatligiga zararli ekani, ikkinchi maqolda esa o'rik (zardoli) yergandan keyin suv ichmaslik kerakligi ifodalanmoqda. Bundan xalqimiz o'rikning nafaqat ijobiy, balki salbiy tomonlaridan ham xabardor ekanini anglashimiz mumkin.

O'rik o'rikni ko'rib ola bo'ladi,

Odam odamni ko'rib balo bo'ladi [21](maqol)

O'rik o'rikni ko'rib oqarar [4, 17] (maqol)

Odob va odobsizlik haqidagi bu maqol va iborada kim qanday insonlar davrasida bo'lsa, ularga o'xshab qolishi ifodalanmoqda. Shuningdek, tilimizda o'rik bilan bog'liq topishmoqlar ham talaygina. Masalan,

Sariqligini zar dedim,

Tatib asal-qand dedim (o'rik)

Uzoqdan saradim araq-araq,

Qoshiga bordim, zar xalak.(o'rik)

Pastu baland ko'p xotin,

Kuylaklari oq, gulgun [19, 82, 289]. (o'rik guli)

Maqollardan, asosan, o'rik termini ramziy ma'no ifodalagan bo'lsa, maqollarda esa asosiy planga uning mazasi, shakli, rangi kabi xususiyatlari chiqmoqda. O'rikning sariq rangi esa zarga qiyos etilmoqda.

Xalqimiz madaniyatining ajralmas qismi bo'lgan allalarda ham o'rik obrazi uchraydi.

O'rik yog'och beshiging, alla,

O'rgilib ketsin onang alla. [5, 212]

Ushbu allada xalqimizga xos yana bir etnografimizm hisoblangan beshikning o'rikdan yasalgani haqida ma'lumot berilmoqda. Lekin bunda ham ramziylik bor, ya'ni beshikni o'rik daraxtidan yasalishi ham shunchaki tasodif emas. O'rik mevali daraxt hisoblanadi, boshqa mevalarga qaraganda kichikroq, lekin juda ko'p hosil beradi. Aynan shuning uchun yangi dunyoga kelgan chaqaloqarning ham kelajakda serfarzand bo'lsin degan ezgu niyat bilan beshik o'rik daraxtidan tayyorlanadi.

Daraxtlarga soldim alvonj, aylana-yo, alla,

Kelgan-ketgan uchtsin deb, aylana-yo, alla.

U tomonda o'rik bor, aylana-yo, alla,

Bu kecha uyda yorim bor, aylanay-yo, alla [18, 22].

Yuqoridagi allada esa o'rik vositasida xalq og'zaki ijodining o'ziga xos obrazi hisoblangan *halinchak*ning aynan o'rik daraxtiga osilishi ifodalanmoqda. Bu orqali esa uning baquvvatlik xususiyati asosida uni ramziy ma'noda *ishonch* ramzi deb aytishimiz mumkin. Bunga dalil sifatida esa odamlarning aynan o'rik daraxtiga o'zini ishonib unga *halinchak* osishini keltirishimiz mumkin.

Bundan tashqari o'rik termini ko'plab xalq qo'shiqlarida ham o'ziga xos etnomdaniy xususiyatlarni ifodalaydi. Jumladan,

Bizning uyning ketida

Qantak o'rik, yor-yor.

Kelinoyim so'rasangiz

O'rta bo'ylik, yor-yor [14, 54]

“Oy oldida bir yulduz” xalq qo‘shig‘ida ham *qantak o‘rik* o‘rta bo‘yli kelinga o‘xshatilmoqda (qandak o‘rik ham boshqa o‘rik navlariga nisbatan hajmi kichikligi va xushta‘mligi bilan ajralib turadi).

Bog‘ing ichra o‘rik bo‘lib gullayman,

Shoxlarinda bulbul bo‘lib sayrayman.

Bulbulmikan gul shoxini qayirgan?

Dushman bo‘lar yorni yordan ayirgan! [17, 30]

Yuqoridagi xalq qo‘shig‘ida esa *gullagan o‘rik daraxti* go‘zallik ramzi sifatida yorni ifodalab kelmoqda.

O‘rik – turli marosim qo‘shiqlari qatori aza qo‘shiqlarida ham uchraydi:

O‘rikdan toylar qilay-ov,

Bargiga maktub bitay-ov,

Hayit kuni bolajonimni,

Yig‘lab-yig‘lab yod etay-ov [16, 316]

Xalqimizda *o‘rik* terminining aza qo‘shiqlarida uchrashi xalqimizning diniy qadriyatlari bilan bog‘liq. Xalqimizda *anor* kabi *o‘rikka* ham Jannat mevasi sifatida qaraladi. Ushbu qo‘shiqda *o‘rikning* tilga olinishining sababi vafot etgan farzandining Jannatda bo‘lishini xohlashi ifodalanmoqda.

Umuman olganda, o‘rik xalq og‘zaki ijodida ham badiiy adabiyotda ham birdek ramziylik kasb etib etnmadaniy xususiyatlar tashuvchi birlik hisoblanadi. Hamid Olimjonning “O‘rik gullaganda” (ya‘ni, bahorda), Zulfiyaning “Bahor keldi seni so‘roqlab” sherlarida, Ulug‘bek Hamdamning “Musulmon” hikoyasi va boshqa ko‘plab badiiy asarlarda ham *o‘rik* suyukli yor, go‘zallik sog‘inchning fitonimik obraz sifatida xalqimizga xos sevgi-muhabbat, suyukli yor, e‘tiqod kabi qadriyatlarni ifodalaydi.

Xulosalar

Tilshunoslikda antroposentrizm til va inson o'rtasidagi munosabatni aks ettiradi. Lisoniy birliklar, jumladan botanik terminlar ham shaxs va etnik guruhning mentaliteti, xalqning uzoq yillik tarixi, ijtimoiy-madaniy tarqqiyoti, etnos sifatidagi rivojlanish jarayonida mavjud bo'lgan ijtimoiy ongini o'zida aks ettirishi mumkin.

Yuqorida ta'kidlaganimiz anor fitomorf kodi, asosan, hosildorlik, serfarzandlik kabi ramziy ma'nolarni ifodalasa, "o'rik fitomorfi esa yorning chiroyli ko'zi, serfarzandlilik, ma'shuqa uchun oshiqning barcha qiyinchiliklarga bardoshlilik ko'chma ma'nolarini ifodalab kelgan"[7, 12]. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, o'rik etnomadaniy kontekstda baquvvatlik ramzi hisoblanadi. Fitonimlar etnomadaniy xususiyatlarni fitomorf kod sifatida frazeologik birliklar, turg'un iboralar, maqol, topishmoq va xalq qo'shiqlarining tarkibiy komponenti sifatida saqlaydi. Natijada, turli nutq vaziyatida ma'lum bir etnosga xos milliy qadriyat, milliy qarash, borliqqa bo'lgan munosabatini o'simlik nomlari va uning o'ziga xos xususiyatlariga bog'liq holda tilda aks etadi.

Adabiyotlar

1. "O'zbek xalq shevalari lug'ati". – Toshkent: "Fan", 1971. – B. 32,75,109,206.
2. „ТАРЖУМОН" XIV аср ёзма обидаси. – Тошкент : «ФАН», 1980. – Б. 10, 34.
3. Bafojev B. "Ko'hna so'zlar tarixi". – Toshkent: "Fan", 1991. – B. 20.
4. Jo'rayeva B. O'zbek xalq paremlarining sinonimik lug'ati. – Toshkent: Kafolat print company, 2023. – B. 17.
5. Madayev O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. O'quv qo'llanma – Toshkent: "Mumtoz so'z", 2010. – B. 212.
6. Mirzayev T., Musoqulov A., Sarimsoqov B. "O'zbek xalq maqollari". – Toshkent: "Sharq ", 2005. – B. 143.

7. Muqimova G. Fitomorf metaforalarning lingvopoetik, lingvokulturologik xususiyatlari va leksikografik talqini. filol. fan. fals. dok. ... diss. avtofef. – Bixoro. 2023. – B. 12.
8. Shomaqsudov Sh., Shorahmedov Sh. “Nega shunday deymiz” O‘zbek xalq maqollarining izohli lug‘ati. – T.: “G‘afur G‘ulom”, 1987. – B. 39.
9. Snesev G.P. Xorazmliklarning musulmonlikdan avvalgi marosim va urf-odatları. – Urganch: UrDU nashirlik bo‘limi, 2018. –B.192
10. Z.M.Bobur. “Boburnoma”. – Toshkent. «O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi FAN» nashriyoti 2018. – B. 7
11. Аттухфатуз закияту филлугатит туркия. – Тошкент: “Фан”, 1968. – Б.177.
12. Бобур номидаги халқаро жамоат фонди. “Бобур энциклопедияси”, – Toshkent: “Sharq”, 2014. – B. 253, 603.
13. Дьякова Т. А. "Этнокультурная основа использования фитонимов лексико-семантической группы «Дикорастущие травы» (на материале сборника М. Матусовского «Земля моих отцов-Донбасс») // Вопросы журналистики, педагогики, языкознания. 38.4 (2019): 508-515.
14. Жўраев М. “Ой олдида бир юлдуз”. Ўзбек халқ маросим қўшиқлари. – Тошкент: Ғафур Ғулом, 2000. – Б. 54.
15. Хасаний М. Табобат дурдоналари. – Ташкент: Ибн Сино , 1990. – Б. 141.
16. Мусақулов А. Ўзбек халқ лирикаси. – Тошкент: Фан, 2010. – Б.316.
17. Очилов Э. “Шода-шода марварид” Ўзбек халқ қўшиқлари. – Тошкент: “Шарқ” 2006. – Б. 30.
18. Сафаров О., Очилов К. “Ўзбек халқ ижоди”. – Тошкент: “Ғафур Ғулом”, 1984. – Б. 22.
19. Ҳасанова. З. Ўзбек халқ ижоди. Топишмоқлар. – Тошкент. “Ғафур Ғулом”,1981. – Б. 82, 289.
20. Шомақсудов Ш. Шораҳмедов Ш. “Нега шундай деймиз”. – Тошкент: Ғафур Ғулом, 1987. – Б.49.

21. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-xalq-ogzaki-ijodi/uzbek-xalq-maqollari/andisha-va-andishasizlik-haqida-maqollar>
22. <https://uzbaza.uz/foyda-va-zarar-haqida-maqollar/>